



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



TIJORAT BANKLARIDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHI TAKOMILLASHTIRISH

Alimardonov Ilkhom Muzrabshoxovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining Bank ishi kafedrası mudiri, i.f.d., professor

E-mail: alimardonovilkhom1971@gmail.com

Maqola haqida ma'lumot

Topshirish vaqti: 09.11.2025

Qabul qilingan vaqt: 12.11.2025

Annotatsiya

Kalit so'zlar: bank, islomiy bank, islomiy xizmatlar, huquqiy asos, kredit, investitsion faollik.

Global iqtisodiy makonda raqobatning keskin kuchayib borishi istiqbolli tarmoqlar va sohalarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining jadal o'sishiga zamin yaratmoqda. Ushbu tendensiya natijasida kapital oqimlarini samarali boshqarish hamda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda islom moliya instrumentlaridan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilga kelib islom moliya tizimining umumiy aktivlari miqdori 3,96 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Natijada, COVID davrida yuzaga kelgan global iqtisodiy cheklovlarga qaramay, hukumatlarning rag'batlantiruvchi siyosati va islom moliyaviy mahsulotlariga bo'lgan yuqori talab natijasida, sohaning jahon moliya bozorlaridagi o'rnini yanada mustahkamladi. Natijada, islom moliya sektori nafaqat barqarorlikni saqlab qoldi, balki global miqyosda yangi bozor segmentlarini egallab, jadal rivojlanish bosqichiga o'tdi (World Investment Report, 2021). Shu bilan birga, global pandemiya tajribasi zamonaviy moliya tizimining transformatsiyasini tezlashtirib, yangi prinsiplar, mexanizmlar va vositalarni joriy etish orqali milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish zaruratini yanada dolzarb masalaga aylantirdi.

Maqolada mamlakat tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

IMPROVING THE IMPLEMENTATION OF ISLAMIC BANKING SERVICES IN COMMERCIAL BANKS

Alimardonov Ilkhom Muzrabshokovich

Head of the Department of Banking of the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy, Professor.

E-mail: alimardonovilkhom1971@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 09.11.2025

Accepted: 12.11.2025

Key words: bank, Islamic bank, Islamic services, legal basis, credit, investment activity.

Abstract

The sharp increase in competition in the global economic space is creating the basis for a rapid increase in the volume of investments directed to promising sectors and industries. As a result of this trend, the need for effective management of capital flows and the use of Islamic financial instruments in financing investment activities is increasing. Analyses show that by 2024, the total assets of the Islamic financial system are expected to reach 3.96 trillion US dollars. As a result, despite the global economic restrictions that arose during the COVID period, the stimulating policies of governments and the high demand for Islamic financial products have further strengthened the position of the sector in global financial markets. As a result, the Islamic financial sector has not only maintained stability, but also entered a phase of rapid development, capturing new market segments globally (World Investment Report, 2021). At the same time, the experience of the global pandemic has accelerated the transformation of the modern

financial system and made the need to diversify national financial markets by introducing new principles, mechanisms and tools an even more pressing issue.

The article substantiates the possibilities of improving the implementation of Islamic banking services in the country's commercial banks.

Kirish

Muhammad Yusuf Siddiq taniqli islom iqtisodchisi va voiz bo'lib, islom banklaridan shariat tamoyillariga muvofiq foydalanishni targ'ib qiladi. Uning fikricha, islom banklari islom huquqi tamoyillariga asoslangan moliyaviy vositachilikning muqobil modelini taklif qiladi. Siddiq moliyaviy tizimda axloqning muhimligini ham ta'kidlaydi. Uning fikricha, islom banklari adolat, halollik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilishi kerak. Ular jamiyatga foyda keltiradigan loyihalarga sarmoya kiritishlari va shubhali yoki noqonuniy bitimlarga aralashmasliklari kerak. Biroq, ba'zi tanqidchilar islom banklaridan foydalanishning cheklovlari va qiyinchiliklarini ta'kidlashadi. Masalan, ular likvidlik etishmasligi yoki ba'zi shariat qoidalarini qayta ko'rib chiqish zarurati muammosiga duch kelishi mumkin. Shuningdek, Muhammad Yusuf Siddiq islom banklaridan shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy tizimning muqobil modeli sifatida foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, bunday banklar islom dinining axloqiy tamoyillari asosida iqtisodiyot va jamiyat rivojiga hissa qo'shishi mumkin [1].

Khawar Khan aytadi, «islom iqtisodi adolat, altruizm, hamkorlik, xolislik, mo'tadillik va e'tibor kabi axloqiy qadriyatlarga asoslanganligini ta'kidlaydilar. Shunga ko'ra, nafaqat bank tizimi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham ana shu qadriyatlarni hisobga olgan holda faoliyat yuritishi kerak. Shuningdek ular, islom va tijorat banklari tushunchalarini ajratish taklif qiladi, chunki islom banklari islom huquqi yoki shariat qonunlariga asoslangan faoliyat tamoyillarini hisobga olgan holda bank faoliyatini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan muassasalar, tijorat banklari esa, aksincha faqat biznes maqsadlariga erishish uchun unda diniy ta'limotlar umuman hisobga olinmaydi» [2].

Vahba Az-Zuhayli «islomiy moliya bankining asosiy maqsadi musulmon jamiyatini qayta tiklashni tashkil etish va musulmonlar o'rtasidagi hamkorlikni islom qonunlari bilan kelishuv asosida amalga oshirish ekanligini ta'kidlaydi. Shunday ekan, har qanday islomiy moliya instituti jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha vositasi sifatida foizsiz kreditlar berish orqali muhtojlarga yordam ko'rsatishga e'tibor qaratishi zarurdir» [3].

1986-yilda Kleinwort Benson tomonidan tashkil etilgan **Islamic Pay Investment Fund** islomiy moliya vositalarining amaliy tatbiqini namoyon etgan dastlabki loyihalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Shveysariyaning *Union Bank of Switzerland* banki ham o'zining **Islomiy investitsiya jamg'armasini** joriy etgan [4]. Bugungi kunda esa islomiy moliya institutlari G'arb

mamlakatlarida noodatiy hodisa emas, balki global moliyaviy tizimning ajralmas qismiga aylangan. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliyada islomiy bank xizmatlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.


Islamic Bank of Thailand mamlakatda shariat tamoyillari asosida ishlovchi yagona bank hisoblanadi. Bu bank 2002 yilda tuzilgan va uning qarashlari quyida aks ettirilgan: "Eng avvalo, ushbu bank o'z faoliyatini islomiy qoidalarga asoslanib amalga oshiradi. Ushbu bank barqaror va kuchli bo'lishi, yaxshi nazorat va samarali boshqaruv ostida birinchi darajali xizmat ko'rsatishi shart" [5].

Tahlil va natijalar muhokamasi

2024-yil 26-iyulda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror (ro'yxat raqami - 3536) qabul qilindi. Ushbu hujjat mamlakatda islomiy moliya amaliyotlarini institutsional darajada tartibga solish yo'lida muhim bosqich bo'ldi [6].

2023-yil yakunlari bo'yicha olib borilgan xalqaro tahlillarga ko'ra, jahon miqyosida islomiy moliya sektori aktivlari hajmi taxminan 4 trillion AQSH dollariga yetgan. Bugungi kunda 47 mamlakat miqyosida ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza shakllantirilgan bo'lib, ular doirasida 1600 dan ortiq moliya institutlari shariat qoidalariga muvofiq keng ko'lamli moliyaviy xizmatlarni amalga oshirmoqda.

Shunga qaramay, islomiy moliya sanoati 80 dan ortiq davlatlarda faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, uning asosiy moliyaviy salohiyati o'sishni rag'batlantiruvchi, global standartlarni belgilovchi va innovatsion yondashuvlarni qo'llab-quvvatlovchi bir necha yetakchi mamlakatlarda jamlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, shariatga mos aktivlarning qariyb 95 foizi Yaqin Sharq hamda Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi o'nta davlat hissasiga to'g'ri keladi.



1-rasm. Shariatga mos keladigan aktivlar joylashgan mamlakatlar

Manba: Khawar Khan, (2024)., *Accounting and Business*.
<https://abmagazine.accglobal.com/global/articles/2024/may/business/growth-in-green-islamic-finance.html>


1-rasmda keltirilgan diagramma shariatga mos keluvchi aktivlarning mamlakatlar bo'yicha taqsimotini aks ettiradi. Ushbu ma'lumotlar islomiy moliya tizimining mintaqaviy markazlashuv darajasini va global moliyaviy oqimlarning geografik yo'nalishini tahlil qilish imkonini beradi.

Akademik tahlilga ko'ra, Eron (29%) va Saudiya Arabistoni (25%) islomiy moliya aktivlarining asosiy qismini jamlagan bo'lib, bu mamlakatlarda islomiy moliya infratuzilmasi chuqur ildiz otganini va hukumat siyosati tomonidan faol qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi. Malayziya (11%) ulushi bilan Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida yetakchilik qilmoqda; bu mamlakat islomiy moliya standartlarini joriy etish, sukuk bozori rivoji va raqamli moliyalashtirish sohasida ilg'or tajribaga ega.

Birlashgan Arab Amirliklari (8%), Quvayt (6%), Qatar (6%) va Turkiya (3%) ulushlari ularning mintaqaviy moliya markazlari sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, Indoneziya, Bangladesh va Bahrayn kabi mamlakatlarning nisbatan kichik (2%) ulushi ularning islomiy moliyani yangi bosqichga olib chiqish yo'lida rivojlanayotganini bildiradi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, shariatga muvofiq aktivlarning qariyb 95 foizi Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi. Bu holat islomiy moliya tizimining geografik jihatdan markazlashgan, biroq barqaror rivojlanish salohiyatiga ega global moliya modeli sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi. Bozor talabi talabidan kelib chiqqan holda aholining 85% dan ortig'ini musulmon, deb biladigan O'zbekistonda islomiy moliyaga talab katta hisoblandi. So'rovlar shuni ko'rsatdiki, ko'plab jismoniy shaxslar va korxonalar diniy tashvishlar tufayli an'anaviy kreditlardan qochishadi, biroq shariatga mos variantlarga qiziqish ortib bormoqda. Tadbirkorlarning 38 foizga yaqini islomiy moliyaviy mahsulotlarga qiziqish borligini bildirishgan.

Islomiy moliya tizimi 1970-yillarda shakllanganidan buyon barqaror rivojlanib, global miqyosda o'z tamoyillarini keng tatbiq etishga erishdi. Ayniqsa, 2007–2008-yillardagi global moliyaviy inqiroz davrida an'anaviy banklar inqirozga yuz tutgan bir paytda, islomiy moliya sektori nisbatan barqaror faoliyat yuritdi.



2-rasm. Jahon bozorida Islom moliyaviy aktivlari dinamikasi

Manba: ICD-REFINITIV Islamic Finance Development Report 2020. PROGRESSING THROUGH ADVERSITY. Elektronnyy resurs]. – Rejimdstupa: www.refinitiv.com/en/islamicfinance

Bugungi kunda aholisi to'liq yoki aksariyat qismi musulmonlardan iborat bo'lgan ko'plab mamlakatlarda islomiy moliya tizimi turlicha darajada rivojlanmoqda. Biroq ayrim davlatlarda tarixiy, ijtimoiy yoki institutsional omillar ta'sirida islomiy moliyaga nisbatan noto'g'ri tushunchalar va biryoqlama qarashlar shakllangan. Natijada, bu holat islomiy moliya tizimining jamiyatdagi nufuzini pasaytirib, uning amaliy joriy etilishi, rivojlanish sur'atlari va foydalanish ko'lamining cheklanishiga sabab bo'lmoqda.

1-jadval


"Hamkorbank" ATB da 2022-2025-yillarda ajratilgan islomiy bank mahsulotlarining o'zgarishi (mlrd.so'm)

Hisobot sanasi	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.04.2025
Ajratilgan islomiy bank mahsulotlari summasi	0	407,1	1 056,0	1 359

Manba: "Hamkorbank" ATB ma'lumotlari asosida tuzildi.

"Hamkorbank" ATB da islomiy bank mahsulotlari 2023-yildan boshlab ajratila boshlagan, dastlabki yilda 407,1 mlrd so'm miqdorida ajratilgan bo'lsa, 2024 yilda islomiy bank mahsulotlari portfeli 1 056,0 mlrd so'mni tashkil etdi. 2025 yilning dastlaki choragida portfel 1 359,0 mlrd so'mni tashkil etdi. 2025-yilda portfel ikki baravar oshirish rejalashtirilgan.


Farg'ona vodiysi hududining jami portfeli esa 318,0 mlrd. so'mga etib mijozlar soni 97 tani tashkil etadi. Mamlakatimizning katta qismini tashkil etadigan voha hududi esa mijozlar soni va moliyashtirilgan mablag'lar qiymati bo'yicha eng kam ulushni egallab turubdi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda yurtimizda islomiy bank mahsulotlariga qiziqish judayam ortib bormoqda, jumladan poytaxt hududiga tadbirkorlik subyektlarining ko'p qismi an'anaviy kreditlardan voz kechib, islomiy bank mahsulotlariga katta qiziqish bildirmoqda.



3-rasm. Islomiy bank mahsulotlari hududlar bo'yicha mijozlar soni va summasi (trln. so'mda)

Manba: "Hamkorbank" ATB ma'lumotlari asosida tuzildi.

Hududiy menejerlar o'ziga belgilangan hududlarda bank tarmoqlariga navbatma navbat safar qilgan holda, xodimlarni islomiy bank mahsulotlari bo'yicha o'qitishlari va mijozlarga bevosita tashrif buyurishlari tez orada o'z natijasini bera boshladi. Quyidagi keltirilgan diagrammada, 2025-yil boshidan bank raqmoqlariga yangi mijozlar kelishi va ularning oyma-oy o'sib borishi keltirilgan. 2025-yil 1-chorak davomida jami 41 nafar yangi mijozlar islomiy mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan.



4-rasm. Islomiy bank mahsulotlari bo'yicha mijozlar soni va yangi jalb etilgan mijozlar (trln. so'mda)

Manba: "Hamkorbank" ATB ma'lumotlari asosida tuzildi.

Avvalgi tahlillarga muvofiq, hozirgi bosqichda bank tomonidan islomiy moliyaviy mahsulotlarni amalga oshirish jarayonida asosiy moliyaviy manba sifatida Islom taraqqiyot banki tarkibidagi Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) hamda Savdoni moliyalashtirish bo'yicha Xalqaro Islom korporatsiyasi (ITFC) resurslaridan foydalanilmoqda.

Xulosa va takliflar

Tahlil natijalariga ko'ra, 44,44 foiz respondentlar "imkoniyatlar to'liq yetarli bo'lmasada, ushbu sohani rivojlantirishga tayyormiz" deb javob bergan. Bu ko'rsatkich tijorat banklari islomiy moliya mexanizmlarini amaliyotga joriy etishga yuqori darajada qiziqish bildirayotganini, biroq zarur infratuzilma va tajriba jihatidan muayyan cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi.

Shuningdek, yana 44,44 foiz ishtirokchilar "islomiy bank tizimining asosiy tamoyillarini bilamiz, biroq bu faoliyatni boshlash uchun yetarli emas" degan fikrni bildirgan. Bu esa bank xodimlari o'rtasida nazariy bilimlar mavjud bo'lsada, amaliy kompetensiyalar yetishmasligini anglatadi.

Faqat 11,12 foiz respondentlar "bilimli mutaxassislarimiz yetarli, faoliyatni boshlashga tayyormiz" deb javob bergan. Ushbu past ko'rsatkich mamlakat bank tizimida islomiy moliya sohasida malakali kadrlar tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil shuni anglatadiki, O'zbekiston tijorat banklarida islomiy moliya xizmatlarini joriy etish uchun tashkiliy va inson resurslari jihatidan potensial mavjud, biroq bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mutaxassislar tayyorgarligini oshirish, huquqiy-me'yoriy bazani mustahkamlash va amaliy treninglarni kengaytirish zarur (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda islom bank tizimini tatbiq qilish imkoniyatlari [7]

Islom bank xizmatlarini qisqa muddatlarda joriy qilish uchun tijorat banklarida imkoniyatlar yetarliligi?	Soni	Foizi
Ha, ushbu sohada faoliyatimizni boshlash uchun bilimli mutaxassislarimiz yetarli	3	11,12%
Imkoniyatlar yetarli deb bo'lmaydi, ammo biz ushbu sohani rivojlantirishga tayyormiz	12	44,44%
Biz bu tizimning asosiy tamoyillarini bilamiz, lekin ushbu yo'nalishda faoliyat boshlash uchun bu yetarli emas	12	44,44%
Bu sohada kerakli bilimlarga ega mutaxassislarimiz umuman yo'q	0	0,00%
Jami	27	100%

«Islom taraqqiyot banki» guruhi tarkibidagi Xususiy tarmoqni rivojlantirish islom korporatsiyasi (ICD) O'zbekistonda islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirishda strategik hamkor sifatida faol ishtirok etmoqda. Mazkur tashkilot tijorat banklari bilan hamkorlikda "islomiy darcha" loyihalarini bosqichma-bosqich joriy etib, shariat tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlarni taklif etish, bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish hamda yangi investitsion imkoniyatlar yaratishni maqsad qilgan. Ushbu tashabbus mamlakatda islomiy moliya segmentining institutsional rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Islomiy moliya tizimi fiqh al-muomalat — islom huquqining iqtisodiy munosabatlarga oid tamoyillariga tayanib, nafaqat moliyaviy operatsiyalarni shariatga muvofiq tartibga soladi, balki adolat, ijtimoiy mas'uliyat va risklarni taqsimlash prinsiplarini ham ilgari suradi. O'zbekiston amaliyotida joriy etilgan "islomiy darcha" mexanizmi an'anaviy banklar mijozlariga shariatga mos moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini berib, mahsulot diversifikatsiyasi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni ta'minlamoqda. Natijada, ICD tashabbusi asosida amalga oshirilayotgan ushbu loyihalar moliyaviy inklyuziya, investitsion faollik va iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishga, shuningdek, O'zbekistonni mintaqaviy islomiy moliya markaziga aylantirishga zamin yaratmoqda.

2-jadval

Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) bilan hamkorlik o'rnatgan tijorat banklari [8]

№	Tijorat banklari nomi
1	"ASIA ALLIANCE BANK" ATB
2	"O'zsanoatqurilishbank" ATB
3	"Turonbank" ATB
4	"Xalq banki" AT
5	"Kapitalbank" ATB
6	"Orient Finans Bank" XATB
7	"Mikrokreditbank" ATB
8	"Aloqabank" AT
9	"Trastbank" ATB
10	"Ipak Yo'li Bank" AITB
11	"Hamkorbank" ATB

O'zbekistonda islomiy moliyaga bo'lgan talab ortib borayotgan bir sharoitda, "Turonbank" ATB ham sohaning istiqbollari inobatga olib, Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibidagi Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) bilan hamkorlikda "islomiy darcha" loyihasini amalga oshirishni yo'lga qo'ydi. Mazkur tashabbus bank faoliyatida shariat tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlarni joriy etish, aholining islomiy moliya haqidagi bilimini oshirish hamda yangi mijozlar segmentini shakllantirishga qaratilgan.

"Turonbank" o'zining transformatsiya strategiyasi doirasida ICD bilan hamkorlikni yanada mustahkamlab, islomiy bank amaliyotini joriy etish bo'yicha maslahat va texnik ko'mak olishni yo'lga qo'ygan. Ushbu hamkorlik natijasida bankda "islomiy darcha" tizimi bosqichma-

bosqich joriy etilib, moliyaviy mahsulotlar diversifikatsiyasi, xizmatlar sifati va shaffoflik darajasining oshishiga zamin yaratilmoqda.

Fikrimizcha, respublikamiz banklarining faoliyatida islomiy moliyalashtirish xizmatlarini yanada kengaytirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Mahsulotlar turini kengaytirish va innovatsion yondashuvni joriy etish. Bugungi kunda ATB "Hamkorbank" tomonidan asosan murobaha (savdo asosidagi moliyalashtirish) va ijara (lizing) xizmatlari taqdim etilmoqda. Ushbu xizmatlar islomiy moliyalashtirish asosida muhim o'rin egallagan bo'lsa-da, ular bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Bozor talabi va xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda:

Mudaraba (foйда asosidagi sheriklik), musharaka (kapital asosidagi sheriklik) va vaqala (vakillik asosidagi bitimlar) kabi ilg'or islomiy moliyaviy mahsulotlarni amaliyotga joriy etish zarur. Bu mahsulotlar orqali bank investitsion loyihalarda ham faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sukuk (islomiy obligatsiyalar) kabi moliyaviy vositalarni tatbiq etish orqali infratuzilma loyihalari va yirik investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi, shuningdek, xalqaro islomiy moliya bozorlaridan uzoq muddatli moliyaviy resurslar jalb qilinadi.

Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun maxsus, oldindan rejalashtirilgan islomiy moliyaviy paketlar taqdim etish orqali real iqtisodiyotga qaratilgan qo'llab-quvvatlash kuchaytiriladi. Bu jarayonda, halol faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlar, fermerlar hamda yangi biznes tashabbuskorlariga mo'ljallangan alohida moliyaviy instrumentlar ishlab chiqilishi zarur.

2. Bank xodimlari malakasini oshirish va ichki salohiyatni kuchaytirish. Islomiy bank xizmatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi bevosita xodimlarning bilim va malakasiga bog'liq. Shu sababli:

Bank ichida Islomiy moliya bo'yicha Ichki o'quv markazi yoki maxsus Trening bo'limi tashkil etilishi lozim. Bu markazda muntazam treninglar, master-klasslar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi kerak. AAOIFI, IRTI, ICD kabi xalqaro islomiy moliya tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda sertifikatlangan ta'lim dasturlarini joriy etish orqali bank xodimlarining malaka darajasini doimiy ravishda oshirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shariat kengashi a'zolari, rahbarlar va muhim lavozimdagi mutaxassislarining xalqaro darajadagi malaka oshirish kurslarida muntazam qatnashuvi rag'batlantirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Siddiqi M. N. et al. Riba, bank interest and the rationale of its prohibition. – Jeddah : Islamic Research and Training Institute, 2004.
2. Khawar Khan, (2024)., Accounting and Business. <https://abmagazine.accaglobal.com/global/articles/2024/may/business/growth-in-green-islamic-finance.html>.
3. Al-Zuhaili W. Financial Transactions in Islamic Jurisprudence. Vol. 1. Beirut (Lebanon): Dar al-Fikr, 2003.
4. ICD-REFINITIV Islamic Finance Development Report 2020. PROGRESSING THROUGH ADVERSITY. [Elektronnyy resurs]. – Rejimdostupa: www.refinitiv.com/en/islamicfinance.
5. Wilson, Rodney. Banking and Finance in the Arab Middle East. London (UK): MacMillan, 1983.
6. "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizom//www.cbu.uz
7. <https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326.pdf>
8. Kredit tashkilotlari//www.cbu.uz